



QORAQALPOQ XALQINING IFTIXORI-BERDAQ

Murodova Nigina Shuxrat qizi

Toshkent Pediyatriya Tibbiyot Instituti Talabasi

Email: niginigina967@gmail.com

Telefon: +998 (90) 004-07-19

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 16-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 23-fevral 2023 yil

KEY WORDS

Berdaq ijodi, ma'rifat, falsafa, tafakkur.

ABSTRACT

Ijtimoiy bilimlar sohasida ijod qiluvchi olimlarimiz xalqimizning boy merosini, ajdodlarimiz yaratib kelgan bebaho ma'naviy qadriyatlarni o'rganish ishiga asosiy e'tiborini prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M. kuchaytirmoqdalar. Ma'lumki, sovetlar davrida xukmron siyosiy va mafkuraviy talab asosida bunday masalalarga bir yoqlama yondoshish va buzib ko'rsatishlar xukmronlik qilardi. Bunday siyosat, mafkura va ular vujudga keltirgan g'oyaviy tamoyil va terminlarni yengib o'tish, yangicha erkin fikrlashga o'rganishning o'zi ham ma'lum vaqtni talab etadi. Buning uchun esa hozirgi falsafiy qarash durdonalari bilan qurollanishimiz kerak. Mana shundagina falsafiy fikrlar taraqqiyotiga, diyorimizda yaratilgan tafakkur taraqqiyotiga, hozirgi zamon falsafasining asosiy muammolariga to'g'ri va holisona baho bera olamiz. Shuning uchun ham falsafiy muammolarni, falsafiy merosni tadqiq qilish doimo kun tartibida turuvchi asosiy masaladan biri bo'lib qolaveradi. Ushbu maqolamiz orqali falsafiy fikrlar taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlarimizdan biri Berdaq ijodiga to'xtalib o'tamiz.

Har bir xalqning o'z ma'naviy qadriyatlari va milliy g'ururiga aylangan allomalari bor. Navoiy, Pushkin, Abay, Maxtumquli, To'xtag'ul va Berdaq siymolarida dunyo xalqlari o'zbek, rus, qozoq, turkman, qirg'iz va qoraqalpoq xalqlarini ko'z o'ngiga keltiradi. Qo'lingizdagi ushbu kitob ham qoraqalpoq xalqining g'ururiga aylangan Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq hayoti to'g'risida bo'lib, bizgacha yetib kelgan asarlaridan juda ham ko'p xulasalar olishimiz mumkin. Berdaq hayoti haqidagi ma'lumotlar juda oz. Afsuski, shoirning tarjimai holi hozirgi kunimizgacha yetib kelmagan. Shoir haqidagi eng muhim ma'lumot detallarini o'z asarlarida ko'ra olishimiz mumkin. U o'zining "Umrin" nomli qo'shig'ida o'zining avtobiografiyasini qoldirgan. Bundan tashqari Berdaq haqida ba'zi zamondoshlari ham qisqacha ma'lumotlar qoldirgan: "Tug'ilganiga bir yarim asr bo'lgan va butun mamlakatda

to'yi o'tayotgan Berdaq (Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) qardosh qoraqalpoq xalqining oti o'chmas ulug' shoiri va qoralpoq adabiyoti poydevoriga g'isht qo'ygan ulkan siymodir. U kambag'al dehqon xonadonida dunyoga keldi va xalq chekkan azob-u utqubatlarga go'daklardan sherik bo'ldi. Qoraqalpoq xalqi yelkasidagi qashshoqlik, sargardonlik, g'ariblik unga yot emas, hammasi uning ham yelkasida: hammasini o'z ko'zi bilan ko'rgan va o'z boshidan kechirgan edi. Shuning uchun ham asarlarida o'z tasvirini topmish o'tgan asr hayot manzaralari chidab bo'lmaslik darajada og'ir, har she'ri bir bosiriq tush yanglig' ayanch, "dod" deb yuborgulik, "huv!" deb ovloqqa chiqib ketgulik darajada daxshatli dunyo, shu bilan birga ishongulik. Berdaq ijodi bilan men 1938-yilda Qoraqalpoqqa borganimda (u vaqtlar Qoraqalpog'iston markazi To'rtko'l shahri edi) tanishgan edim. O'shanda ardoqli olim va ulkan qalamkashlardan Asan og'a bilan Najim og'a menga Ajiniyoz va Berdaq asarlaridan yodaki o'qib va "Bo'zatov" qo'shig'ini aytib, hayron etdilar. Keyin men she'rlarni yozma nusxalari bilan tanishdim. Men Ajiniyozdan va Berdaqdan tarjima qilib matbuotda e'lon etganim yodimda. Keyin "Qiqqiz" bilan tanishdik. Shu bo'ldi-yu, hozirgi zamon shoirlari Abbos og'a, Jo'lmirza, Navro'z og'a, Xo'jabek, bora-bora Tilovmurod, Ibrohim ijodlari bilan tanishdim va ular ijodidan tarjimalar qildim. Ana shu ijodiy bog'lanish qalin do'stlikka aylanib ketdi. Men Qoraqalpoqqa tez-tez boradigan bo'ldim. Har borganda biror shoir ijodi bilan xalqimni tanishtirdim. Qoraqalpoq daftari» ham shu yo'lchilik va qutlug' safar mevalari bo'lib dunyoga keldi va bu qoraqalpoq xalqiga sidqidil qardoshlik ifodasi bo'ldi desam yolg'on emas. Qoraqalpoqning o'tmish shoirlari va zamondosh shoirlari bilan qalin do'stlashib ketdim. Ularga kezi kelganda maslahatchi bo'ldim. Do'stlarim Toshkentga tushganlarida hamisha mening hovlimga kelib ketishadigan bo'ldi. Men ham ulardan talay maslahat olganman va bahramand bo'lganman. "Oysanamning to'yida" dostonimning yozilishiga Asan og'a sababchi bo'ldi. Shu munglig' voqeani o'sha tabarruk odam yig'lab-yig'lab aytib bergani yodimda. Meni Berdaq ijodiga yetaklab olib borgan yo'l shundoq" deya yozadi Beraq ijodini chuqur o'rgangan o'zbek shoiri Mirtemir. Shunday bo'lsada, shoir tarjimai holi haqida yetarlicha

ma'lumot yo'q. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq 1827 yili Orol dengizining janubiy sohilidagi "Oq qal'a" degan joyda kambag'al baliqchi oilasida dunyoga keldi. U joy hozirgi Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq rayoniga to'g'ri keladi. Ota-bobolari qishloqning eng kambag'al odamlaridan bo'lgan, uyi ham, molu-mulki ham, amali ham bo'lmagan. Uning otasi Qarg'aboyning birinchi xotini vafot etganidan so'ng u to'rtta yosh farzandlari bilan qoladi va o'zi bu bolalarni yolg'iz eplay olmasdi, shuning uchun unga bir turmush o'rtoq zarur edi. Bu kambag'al insonni uylanishi ham qiyin edi.

Chunki u davrda kelinning qalin pulini beradigan sharoitda emas edi. U o'ziga o'xshagan bir kambag'al ayolni topib, uylandi.

Uning ikkinchi ayolidan bizning taniqli shoirimiz dunyoga keldi. Uning uch aka-ukalari bor edi bular: Fozilbek, Berdibek, Kalibeklardir. Shoirning hayotidagi hursandchilik, tug'ishganlari orasida uzoq davom etmadi. O'n yoshida u o'z yaqinlaridan ya'ni, ota-onasidan judo bo'ldi. Ko'p kishilik Qarg'aboy va Qoraqorali oilasi parchalanib, bir burda non va boshpana topish uchun har tomonga tarqalib ketadilar. Berdaqni,



Qarg'aboyning akasi Qoshqarboy va uning o'g'li Nazarbiy o'z qaramog'iga oladilar. Bu yerda Berdaq ularni mollarini boqadi va uy ishlariga yordam beradi. O'n yoshga yetganidan so'ng Berdaq, diniy maktabga boradi, maktabni tamomlaganidan so'ng esa u katta o'qishga ya'ni, "Qoraqum eshon" madrasasiga o'qishga kiradi. Ushbu madrasa Qoraqalpog'istonning shimolida joylashgan edi. Berdaqning keying umri ham qashshoqlik, yo'qchilik bilan o'tgan. Shoir o'zining hayoti to'g'risida ko'p narsalar yozadi. Masalan quyidagi she'rida:

Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang

Kun ko'rmoqlik qiyin bo'ldi bu zamon

Maqsadingga o'ylab-o'ylab yetmasang

Qiyin bo'ldi kun ko'rmoqlik bu zamon

Berdag o'zining «Soliq», «Bo'lgan emas», «Bu yil» kabi she'rlarida xon va beklarning olib borayotgan siyosatini qoralaydi, ularning mehnatkash xalqqa o'tkazayotgan zulmini shavfqatsizligini tasvirlaydi. Berdaq insonni yuksaklikka ko'taradi, xalqni katta kuch

ekanligini ta'kidlab, hukumron sinf vakinlarini, mehnatkash xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi. Shoir o'zini xalqning ajralmas bir qismi, deb tasavvur qiladi.

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,
Xalqim bor-ku, yovdan o'chim olaman...

Berdaq o'zi yashayotgan tuzumni uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirning fikricha, mavjud siyosiy tuzum mehnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Bunday tuzumda faqat adolatsizlik, haqsizlik, ta'magirlik, o'zboshimchalik va boshqa insonga hilof illatlari hukm suradi. Shoir zolimlardan zorlanib bunday deydi:

Zolimlar tenglamas faqirning zorin,
Ular o'ylar o'z foydasin, o'z qornin,
Hech qachon zolimlar qo'ldagi borin,
Ep qo'rmaslar, bor bo'lsada xalq uchun.

Berdaq o'zining ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan asarlarida, sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma'rifatli podshoh boshqarish lozim degan fikrga keladi. U o'z davridagi adolatsiz va zolim xon davlatini boshqarishga yaroqsiz deb hisoblaydi. Shoirning «Omongeldi», «Xalq uchun», «Aydosbiy», «Yaxshiroq», «Bo'lgan emas», «Yernazarbiy» asarlarida qoraqalpoq xalqining xonlar zulmiga qarshi qahramona kurashi, milliy-ozodlik harakati aks ettirilgan.

Berdaq inson o'z faoliyatida, xatti-harakatida, maqsadga erishishda erkin ekanligini yozadi. Masalan: «Axmoq podsho» dostonida ayrim boylar va amaldorlarning jabr-zulmi oxirgi nuqtasiga borib taqalgandan so'ng sabr-toqati tugagan xalq o'z ixtiyori bilan ularga qarshi bosh ko'taradi, deydi.

Berdaq ijodiy me'rosida axloq, xulq-odob, nafosat va go'zallik masalalari muhim o'rinni egallaydi. Uning she'rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, oddiy axloq qoidalari to'd'risida qimmatli fikrlar uchraydi. Shoirning aytishiga qaraganda, ba'zi mulla va eshonlar xalq oldida o'zlarini halol va pok, adolatparvar etib ko'rsatadilar. Amalda esa buning aksini ko'ramiz. Shoir ularning munofiqligini fosh etib tashlaydi.

Berdaq o'zining ahloqiy qarashlarida Sharqning eng yaxshi an'alarini davom ettirdi. U «Izladim», «Xalq uchun», «Yaxshiroq», «Menga kerak» kabi she'rlarida kishilarning halol mehnatini ulug'laydi. Uningcha, har bir odamning asosiy burchi xalqqa va unug farovonligi yo'lida xizmat qilishdir. Berdaq ahloqiy qarashlarining yana bir muhim tomoni- kishilarni hurmay qilish, ayniqsa qarilar, zaif va nogironlar, kambag'al va beva-bechoralarni izzat nafsiga tegmaslik, ularga iloji boricha yordam ko'rsatishdir. Berdaq xuddi Navoiy kabi

odamlarni axloq-odobiga qarab, ularni ikkiga: yaxshi va yomonga bo'ladi. Yaxshi odam dehandu, u butun insoniy fazilatlarni o'zida to'plagan dono, aqilli, bilimdon, o'zgalarga yordam beruvchi, fe'l-atvor go'zal kishilarni ko'z oldiga keltiradi. Yomon odam esa Berdaq nazarida, xalqning ofatidir, u xalqni ham, og'a-inini ham qadriga yetmaydi. Umuman olganda, shoir axloqiy qarashlarning markazida insoniylik turadi.

Berdaq ko'p she'rlarida bolalarni tarbiyalash, kattalarni hurmat qilish, yosh avlodga vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat, xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik g'oyalarini singdirishga intildi.

Xulosa:

Qoraqalpoq xalqining adiblaridan biri Berdaq Qarg'aboy o'g'lining ijodi va hayot yo'lini chuqur o'rganmog'imiz, yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilish ishlarini yanada rivojlantirishimiz lozim. Berdaq hayoti va ijodini targ'ib qilishda innovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning she'rlarini zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtirilgan qisqa video lavhalarini tayyorlash hamda kinofilmlar yaratish orqali adibning faoliyatini yoritish ayni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M.H., Abdurashidov M., Abilov U. va boshqalar. Falsafa qisqacha izohlo lug'ati T.: Sharq 2004
2. «Ma'naviyat yulduzlari» (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, Toshkent, 1999)
3. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch» Toshkent, O'zbekiston-2008
4. <https://bilimlar.uz/berdaq-1827-1900/>